

12. Shermatov Eldor Yovmuddinovich. Specific training of professional vocabulary of the English language for students of journalism. Theoretical & Applied Science 9 (2020): 467-470.

13. Saidqodirova D. S. (2024). Terminologik tizimining kognitiv-nominativ mohiyati. B Models and Methods in Modern Science (T. 3, Выпуск 3, с. 67–71). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10776227>

14. Xazratova Z. M. Kasbga yo'naltirilgan chet tili (nemis va ingliz tillarida) o'rgatishda terminlarni o'rganish usullari. Daf-Unterricht Im Digitalen Zeitalter, 121.

15. Madaminova U. R. Integrated and communicative approaches in teaching and learning english. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.2 (2021): 92-97.

SOHAVIY INGLIZ TILINI O'QITISHDA TIL VA NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Bumoxira SULAYMANOVA
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ingliz tilini o'qitishda til va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun elektron o'quv materiallari, xususan ijtimoiy mediadan keng foydalanishning metodik zarurati yana shu bilan belgilanadiki, ijtimoiy media yuqori kommunikativ qobiliyat va talabalarni o'quv faoliyatiga faol jalg qilishi bilan alohida ajralib turadi, bilim, ko'nikma va nutq qobiliyatining potensialini faollashtiradi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, jurnalistika, sohaviy leksika, o'qitish jarayoni, ijtimoiy media.

Mamlakatimiz jahon axborot maydoniga shiddat bilan integratsiyalashmoqda. Vatanimiz fuqarolari bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan ma'lumot va axborotlarni cheksiz ravishda olish imkoniyatiga ega. Biz oladigan va foydalanadigan axborotning sifati bizning hayotiy tanlovimizga, ijtimoiy-siyosiy faoliyatimizga katta ta'sir ko'rsatadi. So'nggi besh yil ichida texnika va texnologiyalar taraqqiyoti OAV, axborot manbalari va axborot yetkazib beruvchilari (kutubxonalar, arxivlar, internet va b.) faoliyatining beqiyos kengayishiga olib kelib, fuqarolarga uning ulkan hajmidan foydalanish va almashinish imkonini yaratdi. Pirovard natijada, fuqarolar ushbu axborotning ishonchli ekanligini baholash, o'z fikrini erkin aytish borasidagi huquqlarini

to‘laqonli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun ham kun tartibiga fuqarolarning media va axborot savodxonligini ta’minlashdek dolzARB masala ko‘ndalang qo‘yilmoqda.

Jamiyatga zamonaviy dunyoda o‘z vazifasini tezda bajaradigan, mustaqil va tashabbuskor, o‘z faoliyatida muvaffaqiyat qozonadigan odamlar kerak. Ijtimoiy media materiallari o‘quv jarayoniga individual va individual yondashuv tamoyillarini amalga oshirishga imkon beradi va shu bilan o‘z faoliyati jarayonida shaxsning rivojlanishiga hissa qo‘sadi, talabalarning tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi va o‘quv jarayoniga samarali ta’sir qiladi. Ingliz tilini o‘qitish va tinglash usullari, talabalar o‘rtasida muloqot ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. Bu esa talabani zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga moslashishga yordam beradi. Ingliz tilini o‘zlashtirishda muvaffaqiyat darajasini oshirish ijtimoiy media yordamida amalga oshirilgan loyiham, darsliklar yordamida o‘qitiladigan darslarni diversifikatsiyalashga, shuningdek, o‘qitishga integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirishga va ingliz tilini o‘rganish motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda ingliz tilini o‘qitishda ijtimoiy medianing metodik ahamiyati shundan iboratki, talabalarning dars jarayonida til ko‘nikmalari va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan multimediatedan foydalanish tizimi ishlab chiqilgan.

Kompyuter texnologiyalari va ular bilan bog‘liq axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida inson faoliyatini axborotlashtirishning yangi yo‘nalishlarini vujudga keltiradi. So‘nggi yillarda kompyuterlar, ular bilan bog‘liq texnologiyalar va vositalar barcha turdagи ta’lim muassasalarida mustahkam o‘rnashdi. Xususan, ijtimoiy media vositalari talabalarni haqiqiy o‘qitishda ham, o‘qitishni tashkil etish bilan bog‘liq turli masalalarni hal qilishda ham qo‘llaniladi. Bunday vositalarni tavsiflovchi atamalar va tushunchalarni kiritishga ko‘plab yondashuvlar mavjud. Ko‘pgina ilmiy va o‘quv-uslubiy nashrlarda ular pedagogik dasturiy vositalar, kompyuterni o‘qitish vositalari, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv kompyuter dasturlari deb ataladi. Sharqlar ro‘yxatini davom ettirish mumkin. Bu ish doirasida elektron ta’lim vositasi atamasi kompyuter va telekommunikatsiya uskunalarini

yordamida ishlaydigan va oliv ta’lim talabalarini o‘qitishda bevosita ishlatiladigan vositalarni nomlash uchun ishlatiladi.

Ijtimoiy mediadan foydalanish texnologiyasini umumiylar ma’noda o‘rganayotganda, ma’lum taxmin bilan elektron o‘quv vositasi konsepsiyasini yaratish mumkin. Yaratilgan elektron vositalarga nom berish uchun ikkala atamani ham ishlatish asosli, chunki ijtimoiy media bilan bog‘liq terminologiya 2002 yilda yaratilgan “O‘quv elektron nashrlari va manbalarini yaratish konsepsiysi”da yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, unda talablar batafsil bayon qilingan. Ijtimoiy medianing sifati, bu elektron o‘quv vositalarini yaratishda e’tiborga olinishi kerak. Elektron nashr bu grafik, matn, raqamli, nutq, musiqa, video, foto va boshqa ma’lumotlar to‘plamidan iborat. Bitta elektron nashrda axborot manbalari (yoki axborot va ma’lumotnomalar), axborotni yaratish va qayta ishslash vositalari va boshqaruv tuzilmalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Zamonaviy multimediya texnologiyalari bu borada ulkan salohiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
2. Maxkamova G. T., Alimov SH. S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English language teaching. – Tashkent: Fan va texnologiya. 2017.
3. Sattarov T.K. Formirovaniye professionalnix umeniy budushego uchitelya inostrannogo yazika na prakticheskix zanyatiyax po spetsialnosti (na materiale angliyskogo yazika): Avtoref.dis...d-ra ped.nauk.-Tashkent, 2000. Solovova YE.N. Metodika obucheniya inostrannim yazikam. Prodvinutiy kurs. – M. AST: Astrel, 2008.
4. Krashen D.S., Principles and Practice in Second Language Acquisition. University of Southern California. y Pergamon Press Inc., - 2009.

PSIXOLOGIK TERMINLARNING TADQIQI

Muhayyo XUDOYMURODOVA
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi
1-bosqich magistranti